

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13763594>

AFRIKA TARIG‘I NAVLARINING YASHIL MASSA HOSILDORLIGI

A.Abdumajitov

Toshkent davlat agrar universiteti “Dehqonchilik va melioratsiya”
kafedrası tayanch doktoranti

J.Eshonqulov

Toshkent davlat agrar universiteti “Dehqonchilik va melioratsiya”
kafedrası professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori

L.Isoyeva

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti v.v.b
dotsenti, q.x.f.f.d

O.Gulmetov

Toshkent davlat agrar universiteti, Agrobiologiya fakulteti magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida afrika tarig‘i navlarining turli sug‘orish tartiblari bo‘yicha yashil massa hosildorligi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Tipik bo‘z tuproq, afrika tarig‘i, sug‘orish, o‘sish-rivojlanish, yashil massa, hosildorlik.*

***Annotation.** This article presents data on the yield of green mass according to various irrigation procedures of African millet varieties in the conditions of irrigated typical gray soils of the Tashkent region.*

***Key words:** Typical gray soil, african millet, watering, growth-development, green mass, yield.*

KIRISH: Dunyo bo'yicha suv tanqisligi muammosi yildan-yilga ortib borayotgani hech kimga sir emas. Yer yuzida aholi soni ham oshib borar ekan, bu muammo yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. 2050 yilga borib Markaziy Osiyo mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelishi mumkin. Mutaxassislarning fikricha, havo haroratining oshish sur'ati har yili o'sib boradi. Hozir biz Qirg'iziston va Tojikistonda yerlarning cho'llanishi, muzliklarning qisqarishi muammosini ko'rib turibmiz. Bu muzliklar mintaqaga zarur bo'lgan suvning asosiy manbai hisoblanadi. Darhaqiqat, suv resurslaridan oqilona foydalanish eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Shu ma'noda davlatimiz rahbarining mazkur qarori asosida ko'riladigan chora-tadbirlar suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatishga, suv resurslaridan yanada samarali va maqsadli foydalanishga zamin bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan muammolarni yechishda paxta va g'alla ekinlari ekin maydonlarini qisqartirmagan holda ekinlarni ilmiy asosda navbatlashtirishni yo'lga qo'yish, dukkaklilar oilasiga kiruvchi ekin loviya hamda moyli ekin kungaboqardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'suv davri 70-90 kunni tashkil qiladigan moyli ekinlar va dukkakli don ekinlarini kuzgi g'alla ekinlaridan keyin joylashtirish hamda tomchilatib sug'orish tartiblarini ishlab chiqish eng dolzarb muammolardandir.

TADQIQOT NATIJALARI. Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida Afrika tarig'i HHVBC tall va ICTP8203 navlari tajriba dalasiga 2022 yil 10 aprel kuni ekildi. Dastlabki unib chiqish 13 kundan keyin chiqa boshlagan bo'lsa, umumiy unib chiqish 23 aprel kunlarida kuzatildi. 2023-yilgi dala tajribalar 3 aprel kuni ekildi. Dastlabki unib chiqish 11 kundan keyin chiqa boshlagan bo'lsa, umumiy unib dinamikasi 14-15 aprelda kuzatildi. Bu yilgi ob-havo sharoiti nam bo'lganligi uchun unib chiqish uchun ob xavoning issiq kelganligi hisobiga unuvchanligi o'tkan yilga nisbatan vaqtliroq kuzatildi. Afrika tarig'i issiqsevar o'simliklar guruxiga mansub o'simlik hisoblanadi. Afrika tarig'i issiqsevar o'simlik bo'lganligi uchun uning o'sib chiqishi uchun yetarlicha haroratni talab etadi. Afrika tarig'ining o'sib rivojlanishi uchun optimal harorat 12-13°C ma'bul hisoblanadi. Tuproq harorati 8°C

bo'lganda 10-15 kunda, 15⁰C da 4-5 kunda, 20-25⁰C da esa 3 kunda unib chiqa boshlashi aniqlangan. 2022 yilgi fenologik kuzatuvlarning ko'rsatishicha, 2-3 mayda o'simlik bo'yi o'rtacha HHVBC tall navida esa 47-48 smni ICTP8203 navida 44-45 smni, tashkil etdi. Keyingi fenologik kuzatuvlar 1-iyunda kuzatilganda o'simlik buyi o'rtacha HHVBC tall navida o'rtacha 115-119 smni, ICTP8203 navida esa 105-110 smni tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibdiki, HHVBC tall ICTP8203 naviga nisbatan balandligi kuzatildi. HHVBC tall navining vegetatsiya davri bo'yicha tezpishar bo'lib, HHVBC tall navi esa o'rtapishar hisoblanadi, lekin bo'y balandligi yuqori bo'lishi kuzatildi. 2022-yilgi fenologik kuzatuvlar 20-mayda o'simlik bo'yi o'rtacha YeEVS navida 32,0-40,9 smni, HHVBC tall navida esa 36-45 smni tashkil etdi. Keyingi fenologik kuzatuvlar 15-iyunda kuzatilganda o'simlik bo'yi YeEVS navida o'rtacha 101,8-132,1 smni, HHVBC tall navida esa 83,4-118,1 smni tashkil etdi.

1-jadval

Afrika tarig'i navlarining yashil massa hosildorligi s/ga

№	Variantlar	Yashil massa hosildorlik, s/ga		
		2022 y	2023 y	O'rtacha
NNVBC tall navi				
1	Nazorat	284,2	291,6	287,8
2	HHVBC tall+20 tonna go'ng	440,2	445,0	442,6
3	HHVBC tall+25 tonna go'ng	456,0	451,0	453,5
ICTP8203 navi				
1	Nazorat	267,3	266,5	266,9
2	ICTP8203+20 tonna go'ng	374,6	372,3	375,5
3	ICTP8203+25 tonna go'ng	387,1	389,9	388,5

XULOSA: Toshkent viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida Afrika tarig'i navlarining turli sug'orish tartiblari bo'yicha HHVBC tall navi sug'orish oldingi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-75-65 % tuproqning hisobiy qatlami 0-50 smda sug'orishlarda 2 yillik o'rtacha 453,5 s/ga ko'k massa hosil yetishtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

[1] Atabayeva X.N., Xudoyqulov J.B. – O'simlikshunoslik - T., 2018, B.255-256.

[2] Norkulov U, Izbasarov B, Tukhtashev B, Eshonkulov J., Volume: 2 Issue: 2 2022 Effects of Sardoba Reservoir Flood on Irrigated Land, International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology e-ISSN: 2792-4025 40-42 p.

[3] Norkulov U, Tukhtashev B, Eshonkulov J., Volume: 2 Issue: 2 2022 Change of Mechanical Composition of Soils after Flood of Sardoba Water Reservoir, International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology e-ISSN: 2792-4025 36-39 p